

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **NAVOIY DAVRI O'ZBEK ADABIY TILIDA QO'LLANGAN SO'Z YASASH ANDAZALARI**

**Muxtor MIRZOAHMEDOV**

*"Akademik Bobojon G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti" dosenti, filologiya fanlari  
nomzodi (Tojikiston)*

*El. pochta: mirzoamedov1973@mail.ru*

**DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806447>**

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Navoiyning so'z yasalishi, so'z yasash andazalari haqidagi qarashlari, yasama so'zlardan foydalanish mahorati xususida fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Navoiy asarlari, yozma adabiy til, zullisonaynlik, tilning ichki imkoniyatlari, soddalanish jarayoni, so'z yasash andazalari, xalq tili imkoniyatlari.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль Алишера Навои в становлении и развитии узбекского литературного языка. Также представлены взгляды Навои на словообразование, закономерности словообразования, мастерство употребления искусственных слов.

**Ключевые слова:** произведения Навои, письменность литературного языка, Зуллисонайн, внутренние возможности языка, процесс упрощения, примеры словообразования, возможности народного языка.

**Annotation:** The article examines the role of Alisher Navoi in the formation and development of the Uzbek literary language. Navoi's views on word formation, word formation models, and the skill of using derived words are also presented.

**Key words:** works of Navoi, written literary language, bilingualism, internal possibilities of language, process of simplification, word-formation models, possibilities of colloquial language.

Tarixdan ma'lumki, Temuriylar davlatining shukuhi tufayli o'zbek xalqining jipslashuvi kuchaydi, tilning xalqni, davlatni birlashtiruvchi vazifasi ahamiyatli bo'la bordi. Ana shunday til vaziyatida Navoiy adabiy til me'yorlarini mukammal yo'nalishga tushiruvchi islohotchi sifatida maydonga keldi. Adabiy tilimiz eng yaxshi an'analar va Navoiyga xos uslub bilan to'g'ri yo'lga tushib oldi. O'z davri til vaziyatini bor ko'لامи bilan idrok etgan buyuk alloma arab tili, fors-tojik tilining o'zbek tiliga ta'siri, ikki va ko'p tillilik, zullisonaynlik haqida fikr yuritib, ko'proq ona tilida ijod etishga undadi, ayb xalq tilida emasligini, balki til xazinasi boyliklarini ocha bilmagan ijodkor va olimlarda ekanligini isbotladi. Bu borada hazrat Navoiy juda ko'p ishlarni amalga oshirdi.

Alisher Navoiy o'zining til ilmiga doir "Muhokamat ul-lug'atayn" asari bilan o'zbek adabiy tilining, xususan, o'zbek tilshunosligining ilmiy-nazariy asoslarini yaratib berdi.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Buyuk alloma o‘zining ushbu asarida o‘zbek tilining lug‘at tarkibiga xos til birliklarining ma’no xususiyatlari, til morfologik qurilishidagi birikmalarining ma’no vazifasiga maxsus e’tibor qaratib, ularning til boyligini ko‘rsatuvchi dalillar ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Mazkur asar bilan tanishar ekanmiz, turkiy tilning grammatick xususiyatlari, xususan, so‘z yasash yo‘llari haqida keng ma’lumot olamiz. Shu sababli ushbu maqolada Navoiyning so‘z yasalishiga doir fikrlari, o‘z davriga xos so‘z yasash andazalari asosida yasalgan so‘zlardan foydalanish mahorati, shuningdek, Navoiyning o‘zi ham so‘z yasash andazalari asosida yangi so‘zlar yaratganligini ko‘rib o‘tamiz.

Turkiy tilda so‘z yasalishini xarakterlash jihatidan Navoiyning -chi qo‘srimchasi keltirgan misollari o‘rinlidir: “Turklarning yana bir so‘z yasash usullari borki, so‘z oxiriga “ch”, “i” yoki “chi” harflarini orttirish orqali mansab, hunar yoki kasb egalariga doir so‘zlar yasaladi. Forsiyda bu usul yo‘qligi uchun unday so‘zlarni forslar turkcha aytadilar” [1].

Shu asosda “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida -chi shaxs oti yasovchi qo‘srimchali yasalmalar ma’nosiga ko‘ra ikki turga ajratiladi:

1. Mansab nomlari: qo‘rchi, suvchi, xazinachi, chavgonchi, nayzachi, yurtchi, ishlovchi, axtachi.
2. Kasb-hunar, odat nomlari: qushchi, barschi, qo‘ruqchi, tamg‘achi, jibachi, yo‘rg‘achi, halvochi, kemachi, qo‘ychi.

Haqiqatan ham, Navoiy davrida -chi qo‘srimchasi kasb-hunar oti, lavozim nomi, ovchilikka doir atamalar yasashda ishtirok etganligini ko‘ramiz: *qushchi, barschi, qo‘riqchi, suvchi, axtachi, xazinachi, g‘ozchi, turnachi, yurtchi* kabi.

O‘z navbatida, hunar nomlari kichik bir soha doirasida yana shunday shaxs otlariga bo‘linadi. Xuddi shunday qushchilik hunariga oid istilohlar ham bordir. Chunonchi: qozchiyu quvchi, turnachiyu kiyikchi va tovushqonchi so‘zlari fors tilida yo‘qdir. Va ular ushbu zikr etilgan so‘zlarning ko‘pini turkcha aytadilar [2].

Navoiyning til ichki imkoniyatlarini to‘liq ko‘rsata bilish qobiliyatini ana shu misollardan ham bilib olsa bo‘ladi.

Navoiy davrida -chi qo‘srimchasing o‘rnida hozirgi kunda eskirgan -vul qo‘srimchasi unumli ishlatilgan: *yakavvul* (*yo‘l boshlovchi*), *qiptavul* (*qo‘rg‘on qarovuli*), *bakovul* (*xon dasturxonchisi, bosh oshpaz*), *hirovul* (*qo‘sinning ilg‘or qismi, razvedkachi*), *qarovul*, *yasovul* (*intizom saqllovchi, katta mansabdorlar yonida yuruvchi kichik amaldor*), *chingdovul* (*qo‘sinning orqasida yuruvchi soqchi otryad*), *shig‘avul, sazavul, tosqavul, daqavul* kabi. Ushbu yasama so‘zlarning yasalish andazasi fe’l + -vul ko‘rinishida bo‘lib, geneologik nuqtai nazardan mo‘g‘ul tiliga

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

xos bo‘lgan -vul affiksi eski o‘zbek adabiy tilida ko‘proq harbiy va ijtimoiy atamalar yasagan.

Jumladan, mo‘g‘ulcha hisoblanmish -l affiksi Navoiy asarlarida ayrim ijtimoiy-siyosiy atamalarni hosil qilishdagina ishtirok etgan: soyurg‘al, tosqal va h.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida -vul qo‘sishimchali yasalmalar soddalanish jarayoni tufayli ajralmas holga kelgan (qarovul, yasovul, bakovul). Bu turdagি yasalmalar hozirgi til nuqtai nazaridan sodda tub so‘zlardir. Professor A. G‘ulomov -vul qo‘sishimchasi haqidagi turli qarashlarni chog‘ishtirib, uning tarkibi -g‘u (harakat nomi yasovchi) va -l (shaxs oti yasovchi) qo‘sishimchalaridan iborat deb ko‘rsatadi: -l qo‘sishimchasi to‘sqal, tutqal kabi so‘zlarda ham uchrashligini qayd etadi (to‘sqal-past, qorovul, tungi qorovul, tutqal – ushlovchi, tutuvchi) [3].

Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida barcha shaxs oti yasovchi qo‘sishimchalar haqida fikr yuritmaydi, balki ma’no-vazifasi jihatidan ko‘p ma’noli, ko‘p vazifali -chi, -vul affikslari haqidagina fikr yuritadi. Keyingi davrlarda ham -chi qo‘sishimchasi keng ishlatilgan. Bu holatni prof. A. G‘ulomov ham ta’kidlaydi: -vul qo‘sishimchasining esa keyingi davrlarda ishlatilish doirasi cheklangan, yangi so‘zlar yasash qobiliyatini yo‘qotgan morfemaga aylangan.

Navoiy davri o‘zbek tilida -dosh, -tash (ko‘kaldosh-emikdosh), -liq (otaliq-tarbiyachi), -man (borarman-“boruvchi”), -i (yag‘i-“dushman”) va boshqa shaxs oti yasovchi qo‘sishimchalar ham amalda bo‘lgan.

Navoiy asarlarida uchraydigan fe'l + -l tipidagi yasalish andazasi asosida yasaluvchi *qabal*, *yasal*, *tutqal*, *suyurg‘al* kabi so‘zlar va ularning yasalish andazasi hozirgi o‘zbek tili uchun xos emas.

Navoiy asarlarida qo‘llangan yasama so‘zlar, ularning yasalish andazalari va hozirgi so‘z yasash andazalaridan farqlanuvchi tomonlarini ko‘rsatish ham muhim ahamiyatga ega.

Navoiy asarlarida fe'l yasalishining ot+-da yasalish andazasi keng qo‘llangan:

*Yo‘ldasa, bu yo‘lda Nizomiy yo‘lum,*

*Qo‘ldasa, Xusrav bila Jomiy qo‘lum.*

Ushbu andaza bugungi fe'l yasalishida ot+-la ko‘rinishida unumli qo‘llanadi. So‘z yasovchi -da qo‘sishimchasi -la qo‘sishimchasining tarixiy-morfonlogik variantidir. Yuqoridagi misolda keltirilgan yo‘ldasa (yo‘l-la-sa), qo‘ldasa (qo‘l-la-sa) so‘zlari buning isbotidir.

Navoiy asarlarida ot yasashning ot+-liq yasalish andazasi ham unumli bo‘lgan:

*Goh qilib sham‘ga parvonaliq,*

*Goh pari ishqida devonaliq.*

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Ushbu baytdagi parvonaliq, devonaliq so‘zlari ham -liq qo‘shimchasi ishtirokida ot+-liq andazasi asosida belgi, xususiyat, holat otlarini hosil qilgan. Navoiy asarlarida uchrovchi yomonliq, oshuftaliq, parishonliq so‘zlari ham shu andaza asosida hosil bo‘lgan. Hozirgi ot+-lik so‘z yasalishi andazasidan farqi shuki, Navoiy asarlarida -lik qo‘shimchasi -liq shaklida keng qo‘llangan. Shuningdek, ot+-lik qo‘shimchali andaza ham qo‘llangan:

*Rangi yigitlik mayidin ol o ‘lub,  
Hamdami piri ko ‘hansol o ‘lub.*

Bu baytdagi *yigitlik* so‘zi ot+-liq so‘z yassash andazasi asosida yasalgan. -lik qo‘shimchasi otga qo‘shilib, holat bildiruvchi ot yasagan. Demak, hozirgi so‘z yasalishining unumli andazasi hisoblangan ot+-liq Navoiy davrida ham unumli bo‘lgan. Navoiy davrida bu andaza ot+-liq, ot+-lik tarzida ikki xil qo‘llangan.

Ot yasovchi -lik qo‘shimchasing Navoiy asarlarida shakl yasovchi qo‘shimcha vazifasida qo‘llanishini ham ko‘ramiz:

*Nazm anga gulshanda ochilmog ‘ligi,  
Nasr qaro yerga sochilmog ‘ligi.*

*Ochilmog ‘lik, sochilmog ‘lik* so‘zlari tarkibidagi -lik qo‘shimchasi yangi so‘z hosil qilmagan, balki harakat nomining otlik belgilarini kuchaytirgan, xolos. Navoiy asarlarida narsa-qurol oti yasovchi -gi qo‘shimchasi unumli qo‘llangan. Bu qo‘shimcha fe’l va ot so‘z turkumiga xos yasovchi asoslarga qo‘shilib, narsa-qurol otini hosil qilgan:

*Shom savodi asarin tiyra xok  
Subh supurgusi bila qildi pok.*

Yoki:

*Jilva bo ‘lub gum kecha tovusidin,  
Nur ketib gullari ko ‘zgusidin.*

Sifat va ravishlardan fe’l yasovchi -ay, -ar affikslari mavjud. Masalan, pasaymoq, qoraymoq, ozaymoq fe’llari sifat+-ay, ravish+-ay so‘z yassash andazasi asosida asosida yaratilgan; -ar affiksi yordamida sifat+-ar asosida *oqarmoq, ko ‘karmoq* fe’llari yaratilgan. Navoiy asarlarini kuzatganimizda, hozirgi sifat+-ay andazasi o‘rnida ham sifat+-ar so‘z yassash andazasi qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz:

*Har nafase subh kibi sorg‘orib,  
Tong yelidek har dam o ‘zidin borib.*

Shu bilan birga, Navoiy asarlarida -kash, -boz, -vash (mahvash), -gar (korgar, kosagar), -go‘y (duogo‘y) ko‘rinishidagi shaxs ma’nosini bildiruvchi qo‘shimchalarni

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

uchratish mumkin. Bu qo'shimchalar tojik tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibida kelib, keng ishlatiladigan so'z yasash andazalarini hosil qila olmagan.

Navoiy katta ishonch bilan shu fikrlarni yozadi: "xayolimga shunday fikr keladiki, turk xalqi fasohat ustozlariga ulug' haq va huquq eshiklarini lang ochdim: ular o'z so'z va iboralari haqiqati, o'z til va lug'atlarining haqiqiy boyligidan voqif bo'ldilar; forsiygo'ylarning ibora va so'zlari bobidagi ta'na-dashnomalaridan qutuldilar..." [4].

Xullas, Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida o'zigacha mavjud bo'lgan o'zbek adabiy tilini yangi va yuksak bosqichga olib chiqdi, uning qo'llanish hududlarini kengaytirdi, o'zbek tilining mavqeini abadiy mustahkamladi.

Shuningdek, buyuk bobomiz Alisher Navoiy o'z asarlari orqali o'zbek adabiy tilining ifoda vositalariga boyligini, teran ichki imkoniyatlarini har tomonlama ko'rsata oldi va adabiy tilimizning rivojlanish yo'llarini belgilab, ulkan islohot yasadi. Bu Navoiyning o'zbek tili, xalq tili imkoniyatlarini yuksak darajada bilganligidan dalolat beradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

#### **(Использованная литература / References):**

1. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atay. Toshkent: Tafakkur, 2014. 88-bet.
2. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atay. Toshkent: Tafakkur, 2014. 88-bet.
3. Gulyamov A.G. Problemy istoricheskogo slovoobrazovaniya uzbekskogo языка. Affiksatsiya, chast pervaya. Slovoobrazuyushchiye affiksyi imyon. Avtoref.dokt.diss. -Tashkent, 1955, st.21.
4. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atay. Toshkent: Tafakkur, 2014. 115-bet.
5. Matndagi misollar "Hayratul-abror" dostonidan olindi. Navoiy A. MAT (Mukammal asarlar to'plami). 20 tomlik, 7-tom. -Toshkent: Fan, 1991.